

2022-yil oktabr holatiga ko'ra, o'qish uchun xorijga ketganlar soni 110,8 ming nafar.

Shundan:

18 yoshdagilar:  
16,7 ming nafar

19-30 yoshdagilar:  
94,1 ming nafar

# YOSHLAR OVOZI

**BIZ – KELAJAK  
BUNYODKORIMIZ!**

Ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy,  
adabiy-badiiy  
gazeta

#85 (16538)  
2022-yil, 23-noyabr  
chorshanba

[/yoshlarovozi](#)

[/yoshlarovozi](#)

[/yoshlarovozi.uz](#)

Gazeta 1925-yildan chiqa boshlagan

**Huquqiy savodxonlik**  
2-bet

Konstitutsiya darslari  
yoshlarni qoniqtirmaydi

**Minbar**  
6-bet

“O'ldim deganda,  
o'qituvchi bo'laman”

**Moliya kundaligi**  
7-bet

Tarmoqli marketing  
nayranglari



## MNEMONIKA: KUCHLI XOTIRA EGALARI BAHSI

Yoshlar o'rtasida intellektual o'yinlarni rivojlantirish, ularning aqliy salohiyatini yuksaltirish maqsadida umumiy sovrin jamg'armasi 140 million so'mga teng bo'lgan AI-Buxoriy nomidagi xalqaro mnemonika musobaqasi tashkil etilmoqda.

batafsil  
5-betda

# KONSTITUTSIYA DARSLARI YOSHLARNI QONIQTIRMAYDI

**Konstitutsiyamizda yoshlarning bilim olishi, kasb-hunar egallashi, oila qurish, yashash joyiga ega bo'lish hamda o'z iqtidor va salohiyatini namoyon etishi uchun sharoit yaratilishi huquqiy ifodasini topgan. Lekin bugungi kun yoshlari o'z haq-huquqlarini yaxshi biladimi, ular bu imkoniyatlardan qay darajada foydalanmoqda?**

**Shahruza SATTOROVA**, "Yoshlar ovozi" muxbiri

Demak, bu darslardan maktab o'quvchilarining ko'ngli to'lmayapti. Xorijiy davlatlar tajribasiga qaraydigan bo'lsak, jamiyatning eng yosh a'zolariga mamlakat qonunchiligi to'g'risida dastlabki ma'lumotlarni tizimli asosda berish amaliyoti yo'lga qo'yilgan. Xususan, **Singapur**da maktabgacha ta'lim muassasalarida "Konstitutsiyaga kirish", "Qonunlarni o'ynab o'rganamiz" deb nomlangan 2 yillik maxsus kurs; maktablarning boshlang'ich sinflarida 6 yil "Konstitutsiyamiz", "Huquq asoslari", "Davlat va shaxs" kabi majburiy fanlar; o'rta maktablarda 4 yil davomida "Korrupsiyaning mazmun-mohiyati"ga bag'ishlangan maxsus kurslar va maktabning yuqori sinflarida 2 yillik "Konstitutsiyaviy qoidalar", "Korrupsiya", "Ma'muriy munosabatlarga doir qonunchilik asoslari" kabi fanlar o'qitilmoqda.



“**QONUNCHILIKNI BILISHNI MATEMATIKA YOKI KIMYO KABI FANLAR BILAN QIYOSLAB BO'LMAYDI.**”

"Oila" ilmiy-amaliy tadqiqot markazi tomonidan "Yoshlarning huquqiy savodxonligini oshirish, jinoyatga moyil yoshlarni aniqlash" mavzusida o'tkazilgan tadqiqot natijalariga ko'ra, yoshlar orasida o'z huquqini bilmaydiganlar 36,5 foizni, huquqlarining aksariyatini biladiganlar 50,6 foizni tashkil etadi. **1,7 foiz yoshlarga o'z haq-huquqlari xususida to'liq ma'lumotga ega.** So'rovnoma natijalariga ko'ra, yoshlarning 41,3 foizi huquq haqidagi bilimlarini ommaviy axborot vositalaridan, 38,5 foizi o'qituvchi va ustozlaridan, 35,1 foizi huquq fani o'qitilishi davomida beriladigan ma'lumotlardan oladi.

Tadqiqot davomida huquqiy savodxonlikning pastligiga sabablar ham sanab o'tilgan. Yoshlarda huquqiy bilimning yetarli emasligiga tadqiqot ishtirokchilarining 43,9 foizi shaxsiy qiziqishning yo'qligini, 22,8 foizi huquqiy tarbiya tizimining nomukammalligini, 14,2 foizi yoshlarni huquqiy ma'lumotlar bilan ta'minlash tizimining samarasiz ekanini sabab sifatida ko'rsatgan.

Ko'rib turganingizdek, yoshlar orasida huquqiy savodxonlik darajasini ijobiy baholab bo'lmaydi. Shu boisdan ham so'nggi yillarda jamiyatimizda huquqiy ong va madaniyatni oshirish maqsadida Konstitutsiyani muntazam o'rganib borish masalasiga jiddiy e'tibor qaratildi. Maktab dasturiga "Konstitutsiya alifbosi", "Konstitutsiya saboqlari", "Konstitutsiya asoslari" kabi fanlar kiritildi.

Bu darslar qay darajada samarali o'tilmoqda, chora-tadbirlar o'z samarasini beradimi, degan savolga javob topish maqsadida maktab o'quvchilariga yuzlandik.

## **Ozodbek HAMROQULOV,** Qorako'l tumanidagi 35-maktab o'quvchisi:

– Konstitutsiya fani, konstitutsiyaviy atamalar xuddi kitobda yozilgandek, bola anglab, tushunib olishi qiyin bo'lgan murakkab sistemada o'tiladi. Darsliklar yoshlarga moslashtirilmagan. O'quvchilarda fandan zerikish, behafsasalik va bepisandlik yuzaga keladi. Konstitutsiya darslarini iloji boricha sodda atamalar bilan, o'quvchilar tushuna oladigan usulda, masalan, qonun bo'yicha hayotiy misollar, ko'rgazmali chiqishlar orqali amaliy saboqlar berilsa, yaxshi bo'lardi...

## **Maftuna AMIROVA,** G'allaorol tumanidagi 56-maktab o'quvchisi:

– Konstitutsiya darslari, asosan, moddalarni yodlatish orqali o'qitiladi. Umumiy ma'lumotlar, nechta bo'lim, nechta modda borligi aytiladi. Qomusimiz mohiyati va o'rni haqidagi hayotiy misollar bilan dars o'tish kerak, deb o'ylayman. Chunki biz qonunchilikni o'rganishimiz shart, hamma ham huquqiy savodxonlik zarurligini tushunavermaydi. O'zlarining huquq va majburiyatlarini bilmaydigan yoshlar talaygina. Qonunchilikni bilishni matematika yoki kimyo kabi fanlar bilan qiyoslab bo'lmaydi.

**Samarqand shahridagi 9-maktab o'quvchisi Marjona Asadova** Konstitutsiya asoslari va huquqshunoslikdan dars beruvchi ko'pchilik o'qituvchilarning bilim va tajribalari yetishmasligi, o'quv materialini tushuntira olmaydigan mutaxassislar (tarixchi, filolog kabi) o'tishini aytadi.

Bundan tashqari, o'quvchilar amaliy bilimlar, interfaollik va hayotdan olingan voqeiy misollarga aloqadorlik yo'qligi – yoshlarning past huquqiy savodxonligi va fanga qiziqishi yo'qligini sabablardan biri sifatida ko'rsatgan. Konstitutsiya va boshqa qonunlar, tahlil va boshqa huquqiy hujjatlar, hayotiy vaziyatlar bilan taqqoslagan holda chuqur tushuntirilmasligi, bahs-munozaralar qo'llanilmay, o'qituvchilar Konstitutsiya va huquqiy bilimlarni, yoshlarning kelgusidagi hayot yo'llarida muhimligini tushuntira olmasligi, o'qitishga motivatsiya yo'qligini alohida ta'kidlashdi.



**AQSh**da maktabgacha ta'lim muassasalarida 1 yillik "Konstitutsiyaning mazmun-mohiyati va asoslari" nomli maxsus kurs o'tiladi. 1965-yildan buyon Amerika maktablarida "Konstitutsiyamiz faxrimiz", "Qonunlar va ijtimoiy munosabatlar", "Jinslar va millatlar tengligining huquqiy asoslari", "Ish muomalasi qoidalari va majburiyatlar" kabi maxsus kurslar o'qitib kelinmoqda.

**Kanada** maktablarida "Konstitutsiya asoslari" va "Jamiyat-shaxs-qonun" kabi maxsus fanlar 1982-yildan buyon o'qitilgan ekan. 2000-yilda "Kanada fuqarolarining huquqlari va erkinliklari xartiyasi" ishlab chiqilgan bo'lib, o'sha vaqtdan buyon maktab bitiruvchilarining mazkur xartiya bo'yicha majburiy imtihon topshirishi amaliyoti joriy etilgan. Xartiya haqiqiy Kanada fuqarosi qanday bo'lishi kerak, degan savolga javob berib, har bir fuqaroning huquqiy ong-u tafakkuri yuksak bo'lishiga doir huquqiy, siyosiy, ijtimoiy, iqtisodiy kabi bloklarga bo'linadi.

Shuningdek, **Finlandiya**da 2017-yilda "Milliy yoshlar ishi va siyosati dasturi" qabul qilingan. Unga muvofiq, hukumatning alohida dasturi ham ishlab chiqilgan. Dasturga ko'ra, **29 yoshgacha bo'lgan barcha Finlandiya fuqarolari mamlakat qonunchiligi va yuritilayotgan siyosat yuzasidan majburiy o'qitiladi.**

Bundan tashqari, ko'plab davlatlarda jamiyatda huquqiy ong va madaniyatni oshirishga, ayniqsa, yoshlarni qonunlarga hurmat ruhida tarbiyalashga doir davlat dasturlari, strategiyalar, konsepsiyalar va xartiyalar qabul qilingan.

## HUQUQIMIZNI O'RGANAMIZ

Mulkdor mulkiga o'z xohishicha egalik qiladi, undan foydalanadi va uni tasarruf etadi. Mulkdan foydalanish ekologik muhitga zarar yetkazmasligi, fuqarolar, yuridik shaxslar va davlatning huquqlarini hamda qonun bilan qo'riqlanadigan manfaatlarini buzmasligi shart.

**O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi, 54-modda**

# HAR 10 SONIYADA BIR KISHI ICHKILIK TUFAYLI DUNYONI TARK ETMOQDA

Fransuz shifokorlari ota-onasi ichkilikka berilgan 1776 nafar bolaning hayotini kuzatib, shuni aniqladi: bolalarning to'rtidan biri chaqaloqligida nobud bo'lgan, 154 nafari tutqanoqqa chalingan, 69 nafari esi past, 22 bola aqlan zaifdir.



Shahruza SATTOROVA,  
"Yoshlar ovozi" muxbiri

“

HAR YILI AVTOHALOKATLAR  
TUFAYLI DUNYODA O'RTACHA  
1,3 MILLION KISHI NOBUD  
BO'LSA, HODISALARNING 7-8  
FOIZI MASTLIK TUFAYLI  
YUZ BERADI.



## HAR YILI 3 MILLION KISHI HAYOTDAN KO'Z YUMMOQDA

Jahonda bevaqt o'limlarning taxminan 5 foizi spirtli ichimliklarga ruju qo'yishdan kelib chiqmoqda. Bunday ayanchli qismat egalari-ning qariyb 14 foizini 20-39 yosh oralig'idagi insonlar tashkil etadi. **JSST ichkilikbozlikning halokatli oqibatlariga doir hisobotiga ko'ra**, ushbu xavfli illat tufayli dunyoda har yili 3 million kishi hayotdan ko'z yummoqda. Bu har 10 soniyada bir kishi ichkilikbozlik qurboniga aylanayotganidan dalolat beradi. Tadqiqotlarga ko'ra, spirtli ichimlik o'smirlar va yoshlar hayotiga yanada ko'proq xavf solmoqda. Surunkali ichuvchilarning o'rtacha o'lim ko'rsatkichi boshqalarga nisbatan ikki barobarga yuqori. Aroq **inson umrini 17-18 yilga qisqartiradi**.

Ichkilikbozlikning millat genofondiga ham ta'siri yuqori. Chunki ruhiy va jismoniy zaif chaqaloqlar dunyoga keladi. Inson sog'ligidan ayriladi va ish samaradorligi pasayadi. Shuningdek, oilada o'zaro kelishmovchiliklar va ajrimga olib keladi. Insoniy fazilatlarini yo'qolib, bu kimsa mehnat qilmay hayot kechirish tarziga o'tadi. Bu yo'lga kirganlarni davolash va reabilitatsiya qilish katta mablag' talab etadi.

JSST mazkur holatni qator mamlakatlarda alkogol mahsulotlari reklamasi va marketingiga zo'r berilayotgani bilan izohladi. Hammadan ham internetda onlayn e'lonlar tobora keng o'rin olayotgani xavotirlidir. Spirtli ichimliklarga moyilligi yuqori kishilar ularning jozibador reklamasi bilan to'qnash kelganda, kamdan-kam hollardagina nafsini jilovlay oladi.

## “50 GRAMM QUYING”

Shahar yoki qishloq, istalgan ko'chani aylaning, kitob do'koni yoki kutubxona topa olasizmi, bilmadig-u, ammo spirtli ichimliklar do'konini topishingiz aniq. Agar har bir mahalla yaqinida aroq do'konlar bo'lmaganda, aroqxo'rlar soni ancha qisqargan bo'larmidi... Aholi zich yashaydigan ko'p qavatli uylar yonida spirtli ichimliklar do'konlari bo'lishiga mahalla fuqarolari norozi bo'lishsa-da, do'konni berkitishga o'zlar. Yurtimiz qonunchiligida aroq savdosiga bir qancha cheklovlar kiritilgan, lekin bu me'yorlarning barchasi faqat qog'ozda ekani kishini taajjubga soladi.

Bozor-u do'konlarda alkogol mahsulotlarining hech qanday cheklovlarsiz sotilayotganiga guvoh bo'lalmiz. Qishloqlardagi ruxsat etilmagan do'kon-u xonadonlarda aroq "bekitiqcha", ammo erkin sotilmoqda. Qonuniy rastalarda esa alkogol mahsulotlarini qarzga berish, gramlab sotish mumkin. Eng yomoni, voyaga yetmaganlarga ham bemalol sotilmoqda.

Shuni alohida qayd etish kerakki, spirtli ichimliklar savdosi va reklamasi ustidan o'rnatilgan nazorat boshqa psixotrop moddalarga nisbatan ancha zaif. Bu borada samaraliroq choratadbirlarni amalga oshirish, sohani tartibga solish orqali qanchadan-qancha yoshlar hayotini saqlab qolishga erishish mumkin.



Sardorlar forumi

## “KAMALAK” VA TABIAT!



**Tabiatni sevish, asrab-avaylash, unga daxldorlik hissi har bir insonda bo'lishi zarur. Ayniqsa, faol sardorlar bilan yoshlar orasida ekologik madaniyatni targ'ib qilish samarali natija beradi. Bu “Yashil makon” umummilliy loyihasi doirasida Buxoro viloyatida bo'lib o'tgan II Respublika Sardorlar forumida yana bir bor o'z isbotini topdi.**

Forumda “Kamalak” bolalar tashkilotining VIII rayosat yig'ilishi, “Munozara” intellektual o'yini,

“Kamalak”da mehmonda” hamda “Ekopatrul” loyihalari, “Toza hudud” va “Daraxtlarni havas bilan ekamiz!” aksiyalari tashkil etildi. Sardorlarda ekologik madaniyatni shakllantirish va atrof-muhit muhofazasiga munosib hissa qo'shish maqsadida “Ekopatrul” va “Daraxtlarni havas bilan ekamiz!” loyihalari doirasida “Boqiy Buxoro” monumentida 100 tubdan ortiq mevali va manzarali daraxt ko'chatlari ekildi.

Shuningdek, II Respublika Sardorlar forumida rayosat yig'ilishi

ham bo'lib o'tdi. Unda O'zbekiston yoshlar ittifoqi Markaziy Kengashi raisi v.v.b. Shohrux Qudratov, Respublika “Kamalak” bolalar tashkiloti raisi Madina Baratova, Toshkent shahar hokimi o'rinbosari Durdona Rahimova, “Kamalak” bolalar tashkiloti mas'ullari, Respublika Sardorlari hamda hamkor vazirlik, idora va tashkilot vakillari ishtirok etdi. VIII rayosat yig'ilishida 2021/2022-o'quv yilida amalga oshirilgan ishlar sarhisob qilinishi, kelgusidagi rejalar bo'yicha fikr-mulohaza hamda takliflar bildirildi.

**Komila HAMROYEVA**

# HUNARMANDLAR MAHALLASI SHAKLLANMOQDA

Bo'ka tumani "Do'stlik" mahallasidagi 3-maktabning bitiruvchi sinf o'quvchilari hunarmandchilikni ham o'rganmoqda. Gap shundaki, o'quvchilar mahalladagi yoshlar yetakchisi Shohrux Hakimov tashabbusi bilan maktabda tashkil etilgan ikki soatlik hunarmandchilik darsida yosh tadbirkorlar faoliyati bilan tanishadi. Buning natijasi o'laroq, o'quvchilarning 17 nafari darsdan bo'sh vaqtida usta-hunarmandlarga shogird tushib, hunarni mukammal o'rganishga bel bog'ladi.

Iqbol PARDAYEVA,  
"Yoshlar ovozi" muxbiri




O'quvchilarga hunarmandchilikni o'rgatayotgan tadbirkorning o'zi ham yaqin kungacha ishsiz yoshlardan edi.



**Hasan RASHIDOV,**  
tadbirkor:

– Bir necha yillardan buyon mebelchilik sohasida shogirdlikka tushib, tadbirkorlardan ish o'rgan-dim. Sohani ipidan-ignasigacha o'zlashtirib olganimdan so'ng mustaqil ish boshlashni niyat qildim. Ammo zarur asbob-uskunalarini sotib olishga mablag'im yo'q edi. Shohrux aka Hakimov mahallada yoshlar yetakchisi bo'lib ish boshlagach, birinchilardan bo'lib uning yoniga bordim va niyatimni ayt-dim. U kishi meni "Yoshlar daftari"-ga ro'yxatga olib, zarur jihozlarni olishim uchun 300 million so'mlik uzoq muddatli, kam foizli imtiyozli kredit olishimga tavsiya qildi. Kreditni olganimdan keyin Turkiya va Xi-toydan eng zamonaviy uskunalar-ni olib kelib, faoliyatimizni yo'lga qo'ydim. Hozir mahalladagi 10 nafar ishsiz yoshning bandligini ta'min-lab, ularga 3,5 million so'm atrofida oylik beryapman. O'zim tahsil olgan maktab o'quvchilariga ham me-belchilik sirlarini o'rgatayapman.

Mahallada yosh tadbirkor Hasan Rashidov izdoshlari bo'lgan yoshlar ko'p. Ulardan biri Murodulla Qodirov.



**Murodulla QODIROV,**  
maktab o'quvchisi:

– Darslardan tashqari haftada ikki marta Hasan akaning mebel ishlab chiqarish sexiga borib, hu-nar o'rganamiz. Ularning faoliyatiga juda qiziqib qoldim va ustozim-ga bu sohani mukammal o'rganish niyatim borligini ayt-dim. Ular meni shogirdlikka oldi va bo'sh vaqtim-da hunar o'rganyapman. Maktab-ni tamomlaganimdan so'ng kredit olib, o'zim mustaqil ish boshlay-man. Mahallamiz yoshlar yetak-chisi bu borada doim yordamga tayyorman, deydi.



Besh tashabbus paralimpiyadasi



Bundan tashqari, mahallada jazoni ijro etish muassasasidan qaytgan ikki nafar yosh ham hunarmandlarga shogird tushib, kasbli bo'ldi. Endilikda hunari ortidan daromad olib, oilasi byudjetiga hissa qo'shmoqda.



**Shohrux HAKIMOV,**  
Bo'ka tumanidagi "Do'stlik" mahallasi yoshlar yetakchisi:

– Bu ikki yigit juda qo'rs, hech nar-saga qiziqmaydigan yoshlardan edi. Ular bilan muntazam suhbat qilib, yoshlarga berilayotgan imkoniyat-lar haqida ma'lumot berdim. Chilan-gar ustaga shogirdlikka olib bordim. Oradan vaqt o'tib, ikkisi ham chilan-garlik sohasini mukammal egalladi va hozir oylik maosh olib, oilasiga yordam bermoqda. Ularni ko'cha sardorlari etib tayinladim. Ko'chasi-dagi yoshlarni jamoatchilik ishlari va sportga jalb qilishda menga yaqin ko'makchi bo'lyapti.

Mahallamiz yoshlarining bo'sh vaqtini sport bilan band qilishga harakat qilaman. Buning ortidan mahallamizda ikkita sport maydoni bunyod etiladigan bo'ldi. Gap shun-daki, mahallamiz yoshlari "Besh tashabbus olimpiadasi" doirasida futbol bo'yicha "DXX raisi kubog-i"ning respublika bosqichida faxrli 1-o'rinni egalladi. Natijada mahalla-miz yoshlari uchun 1 milliard so'mlik futbol maydoni, 500 million so'mlik Street workout maydonchasi serti-fikati taqdim etildi. Mazkur maydon-

lar uchun joy ajratilib, qurilish ishlari boshlab yuborildi.

Yoshlarning bandligini ta'min-lash maqsadida "Yoshlar daf-tari" orqali kam ta'minlangan oila farzandlarining 24 nafariga 10 yil muddatga 15 sotixdan yer ajratilib, 1 nafar yoshning haydovchilik kur-sida o'qish xarajati, 1 nafar yosh-ning safarbarlik chaqiruv rezervi pullari qoplab berildi. 4 nafar no-giron yoshga bir martalik moddiy yordam ko'rsatildi. 5 nafar yoshga hokim yordamchisi bilan birga-likda chorvachilik uchun 20 mil-lion so'mdan kredit ajratdik. Yana 8 nafar yoshga "Kelajak kasblari" loyihasida Ay-Ti yo'nalishida o'qishi uchun 6 oylik o'qish xarajatlarini qoplab berishga tavsiya berdik.

Yoshlar bandligini ta'minlashda, asosan, mahallamiz hunarmand-lari yaqindan yordam bermoqda. Yoshlar ham usta-shogird an'anasi sabab hunarmandga aylanib bor-yapti. Yaqin kelajakda mahallamiz hunarmandlar mahallasiga aylan-sa, ajab emas.



## PARASHAXMAT G'OLIBLARI ANIQLANDI

"Besh tashabbus paralimpiyadasi" tom ma'noda iqtidori bor, lekin im-koniyati cheklangan yoshlarni kashf qilishga sabab bo'lmoqda. Birgina Toshkent viloyatining o'zidan musobaqalarda ishtirok etish istagidagi 1500 nafardan ziyod nogiron yosh ro'yxatdan o'tdi.

Musobaqa dasturidan o'rin olgan parashaxmat musobaqasi-ni viloyat bosqichi natijasiga ko'ra, parkentlik Azamat Shoniyozov va Chirchiq shahridan Go'zal Gulmetova 1-o'rinni egalladi.

**Otabek G'ULOMOV,**

Yoshlar ishlari agentligining Toshkent viloyati boshqarmasi mutaxassisi



## PARALIMPIADACHILAR FINALDA

"Besh tashabbus paralimpiyadasi" doirasida tashkil etilgan stol tennis musobaqasining viloyat bosqichida 60 nafardan ziyod ishtirokchi qatnashdi. Qiziqarli bahslarda Shahzod Ubaydullayev, Farangiz Abduqobilova birinchi o'ringa munosib deb topildi.

Shuningdek, "Kibersport" musobaqasining vi-loyat bosqichi ham yakunlandi. Kompyuter o'yin-lariga qiziqishi yuqori bo'lgan 30 nafardan ziyod yoshlar g'oliblik uchun bahs olib bordi. Yakunda Muhammadqodir Abdullayev, Munira Iskandarova g'oliblikni qo'lga kiritib, finalga yo'l oldi.

**Jahongir NAMOZOV,**

Yoshlar ishlari agentligining Jizzax viloyati boshqarmasi mutaxassisi

# MNEMONIKA: KUCHLI XOTIRA EGALARI BAHSI



Muhammadshukur MUHAMMADJONOV,  
"Yoshlar ovozi" muxbiri



Saralashda xalqaro mnemonika chempionati ishtirokchilari bilan birga, shu yo'nalishda o'zini sinab ko'rgan yoshlar ham bor. 9-10 yoshli o'g'il-qizlar ishtiroki ham quvonarli holatlardan biri.

Saralashdan o'tgan 78 nafar qatnashchi musobaqaning Samarqand shahrida bo'lib o'tadigan final bosqichida ishtirok etadi. 10 ta shart asosida o'tkaziladigan finalda xalqaro toifadagi hakamlar, ekspertlar, Xalqaro eslab qolish assotsiatsiyasi raisi Simon Reinhardning ishtiroki kutilmoqda. Musobaqa Xalqaro eslab qolish assotsiatsiyasi qoidalari asosida maxsus platformada o'tkazilishi belgilangan.

**Samarqand shahrida Al-Buxoriy nomidagi xalqaro mnemonika musobaqasi joriy yil 14-16-dekabr kunlari tashkil etiladi.**


Yoshlar ishlari agentligi O'zbekiston mnemosport federatsiyasi bilan hamkorlikda yoshlar o'rtasida intellektual o'yinlarni rivojlantirish, ularning aqliy salohiyatini yuksaltirish maqsadida umumiy **sovrin jamg'armasi 140 million so'mga** teng bo'lgan Al-Buxoriy nomidagi xalqaro mnemonika musobaqasi-ni tashkil etmoqda. Musobaqa 2 bosqichdan: saralash hamda Samarqandda bo'ladigan xalqaro musobaqadan iborat.

Poytaxtimizda bo'lib o'tgan saralash bosqichida **@mnemosportbot** telegram botidan ro'yxatdan o'tgan 1500 dan ortiq yoshlar raqamlarni eslab qolish bo'yicha o'z salohiyatini namoyon etishdi. 5 daqiqa davomida eng ko'p raqamlarni eslab qolgan 78 nafar yosh tanlab olindi.

– Yurtimizda rasmiy mnemonika musobaqasi ilk mar-ta tashkil etilmoqda, – **deydi Yoshlar ishlari agentligi mas'ul xodimi Laziz Qayumov.** – Katta qiziqish bilan kutib olingan musobaqaning saralash bosqichi yuqori saviyada o'tdi. Ishtirokchilar soni kutilganidan-da ko'pligi va ular orasida xorijliklar ham borligi diqqatga molikdir.

“

MNEMONIKA – (YUNONCHA) ESLAB QOLISH SAN'ATI, SUN'IY ASSOTSIATSIYALAR HOSIL QILISH YO'LI BILAN ESLAB QOLISHNI OSONLASHTIRUVCHI VA XOTIRA HAJMINI KENGAYTIRUVCHI USULLAR TIZIMI.



Minbar

## “KUMUSHKON”GA 1000 TA KITOB BERILDI, BIROQ...

“

**YOSHLAR ISHLARI AGENTLIGI TOSHKENT VILOYATI BOSHQARMASI MARJONAGA 1000 DONA KITOB AJRATDI.**



**Parkentlik Marjona Qiyomova Germaniyaning mamlakatimizdagi elchixonasining grantini yutib olib, o'z qishlog'ida kutubxona ochgan. Biroq oradan ko'p vaqt o'tmay bu kutubxona faoliyati turli muammolarga duch kela boshladi. Vaziyatni o'rganish uchun Marjona istiqomat qiladigan Parkent tumani "Kumushkon" mahallasiga bordik.**

– Kutubxonaning asosiy maqsadi kitobdan uzoqlashib ketgan, ko'p vaqtini ijtimoiy tarmoqlarga behuda sarflayotgan bolalarni benazir xazina bo'lmish kitob olamiga qaytarish. Grant yutganimdan so'ng hammamiz xursand bo'ldik, mahallamizga Germaniya elchixonasi vakillari ham keldi, – **deydi Marjona Qiyomova.** – Men mebel va jihozlarni, kerakli texnikalarni olishga,

mahalla raisi va hokim yordamchisi esa kitoblar berib, yangi ish o'rni yaratishga kelishib oldik. Avgust oyida kutubxonaning tantanali ochilish marosimi bo'lib o'tdi. Unda tuman axborot-resurs markazi 1000 ta kitob ajratdi. Yoshlarga bepul kompyuter xizmatlari va kompyuter savodxonligini o'rgatish uchun sharoitlar yaratdim. Ammo ko'p vaqt o'tmay, ajratilgan kitoblardan 853 tasi qaytarib olindi. Yangi ish o'rni ham tashkil qilinmadi. Hozir Alisher Navoiy nomidagi O'zbekiston milliy kutubxonasiga ulandik, odamlar onlayn tarzda kitob o'qimoqda. Bugungi kunda 269 dona kitob bor, xolos.

Marjona masala yuzasidan Yoshlar ishlari agentligi rahbariyatiga murojaat qilgach, amaliy yordam berish uchun Yoshlar ishlari agentligi Toshkent viloyati boshqarmasiga tegishli ko'rsatma berildi. Noyabr oyida Yoshlar ishlari agentligi Toshkent viloyati boshqarmasi Marjonaga 1000 dona kitob ajratdi. Biroq ish o'rni yaratish muammosi ochiq qolmoqda. Marjona Toshkent viloyati hokimining qabuliga yozilgan, umid qilamizki, ish o'rni bilan bog'liq muammo ham tez kunlarda hal etiladi.

**Maksim GYULAHMEDOV,**  
blogger

## “O‘LDIM DEGANDA, O‘QITUVCHI BO‘LAMAN”



O‘qituvchiman. Olis va kichik qishloqning katta maktabida dars beraman. Shogirdlarim xorijda, poytaxtda va respublikamizning turli hududlaridagi nufuzli oliy ta‘lim muassasalarida tahsil oladi. Gohida yo‘qlab kelishadi, ularning ayrimlari bilan gaplashganimda, ich-ichimdan nimadir uzilganday bo‘ladi...

O‘quvchilarimning kelajakdagi orzusi haqida so‘raganimda, aksariyati bir xil javob beradi: “O‘ldim deganda, o‘qituvchi bo‘laman!” Shu paytda ichimdan nimalar o‘tishini bilganingizda edi...

Afsuski, jamiyatimizda o‘qituvchilarga past nazar bilan qarash haliyam davom etmoqda. Ular yoshlarning “kumiri” bo‘la olmayapti. Kuyovligida olgan “og‘zi ochiq” tuffli va qiyshayib, rangi o‘chib ketgan shamg‘i kostyumshim bilan obro‘ topa olmayapti. Topa olishmaydi ham!

Menimcha, o‘qituvchilik yoshlarimizda eng katta orzu bo‘lishi shart! “O‘ldim deganda” deb, mak-

tabga o‘lgan kundan borib keladigan odam kerak emas bizga! Zero, undaylar tizimda talaygina. Bizga fidoyilar kerak, bizga vatanparvarlar kerak. Faqat oldin ularga sharoit yaratib berishimiz shart.

Qani endi, dunyo bir ters aylanib, biz o‘qituvchilarga xuddi rivojlangan mamlakatlardagidek munosabatda bo‘lishsa, oylik oshsa, biz ham baxtli odamlarga o‘xshab xayolimizni bir joyga qo‘ygan holda faqat sifatli ta‘lim berishni o‘ylasak. Shogirdlarimiz katta odam bo‘lishini, muvaffaqiyatlarga erishishi uchun qo‘limizdan kelganini ishga solib, ular bilan shug‘ullanishni biz xohlamaymizmi? Albatta, istaymiz. Lekin vaqt o‘lgur yetmaydi, ayniqsa, erkak kishining maktabda ishlab, arzimmas oylik bilan oila tebratishi juda ayanchli holatdir... Hamma muammolarimizning yechimi ta‘lim tizimida yotibdi...

**Hasan XOLMATOV,**

Xatirchi tumanidagi 27-maktabning texnologiya fani o‘qituvchisi

Taqdimot

## 100 JILDLI TO‘PLAM NASHR ETILDI



Prezidentimiz 2019-yil 15-oktabr kuni Ozarbayjon poytaxti Boku shahrida bo‘lib o‘tgan Turkiy davlatlar hamkorlik kengashi-ning yettinchi sammitida tashkilotga a‘zo davlatlar adabiyotining eng sara namunalaridan iborat “Turkiy adabiyot durdonalari” deb nomlangan 100 jildli kitoblarni turkumini har bir mamlakatning ona tilida nashr etish g‘oyasini ilgari surgan edilar. Ushbu ezgu tashabbus asosida o‘zbek adabiyoti hamda turkiy tilda so‘zlashuvchi xalqlar adabiyotining yuksak namunalaridan xalqimizni bahramand qilish maqsadida 100 jildli “Turkiy adabiyot durdonalari” asari majmuasi nashr etildi.

O‘zbekiston Fanlar akademiyasining Sharqshunoslik institutida to‘plamning taqdimoti bo‘lib o‘tdi. Tadbirda 100 jildli “Turkiy adabiyot durdonalari” asarini yaratish bilan bog‘liq jarayonlar, ilmiy va ijodiy izlanishlar haqida ma‘lumot berildi.

To‘plamga O‘zbekiston, Turkiya, Qozog‘iston, Qirg‘iziston, Ozarbayjon, shuningdek kuzatuvchi mamlakatlar – Turkmaniston va Vengriya davlatlarining adib va mutafakkirlari asarlari kiritilgan. Uni tayyorlashda 200 nafardan ziyod tarjimon mehnat qilgan.

**Marjona QURBONOVA,** “Yoshlar ovozi” muxbiri



Jahon chempionati – 2022

## O‘ZIGA XOS START



**Muhammadshukur MUHAMMADJONOV,** “Yoshlar ovozi” muxbiri

Jahon chempionati 1930-yildan boshlab har to‘rt yilda bir marta o‘tkazilmoqda (1942 va 1946-yillarda Ikkinchi jahon urushi tufayli o‘tkazilmagan). Amaldagi chempion – Fransiya 2018-yilda Rossiyada bo‘lib o‘tgan turnirda g‘oliblikni qo‘lga kiritgan.

**Shu kunga qadar jahon chempionati kubogini sakkizta terma jamoa qo‘lga kiritgan:** Braziliya (besh marta, ular barcha turnirda o‘ynagan yagona jamoa hamdir), Germaniya va Italiya (to‘rt martadan), Argentina, Fransiya, Urugvay (ikki martadan), Angliya va Ispaniya (bir martadan).

Qatar futbol tarixida rekord o‘rnatdi. Mamlakat Jahon chempionatini o‘tkazish uchun 220

milliard dollardan ortiq mablag‘ sarflagan. Avvalgi rekord Braziliyaga tegishli bo‘lib, 15 milliard pul sarflagan.

O‘yinlar Qatardagi eng nufuzli 8 ta stadionda o‘tmoqda. Mundialning ochilish bahsiga “Al-Bayt” stadioni mezbonlik qildi. Qatar va Ekvador terma jamoalari o‘rtasida bo‘lib o‘tgan ilk uchrashuv mezbonlar mag‘lubiyati bilan yakunlandi: 0-2.

Ilk bahs o‘ziga xos natijalar bilan tarixga kirdi. Shu kungacha JChning ilk o‘yinida birinchi gol penaltidan kiritilmagan va mezbonlar mag‘lub bo‘lmagan. Ekvador hujumchisi Valensiyaning ikkinchi goli turning eng chiroyli goli bo‘lishga nomzod va hujumchi to‘purarlar bahsida hozircha yetakchilik qilmoqda.

**20-noyabrdan Qatarda futbol bo‘yicha jahon chempionati start oldi. Dunyoning eng kuchli 32 jamoasi qariyb bir oy davomida dunyo futbolini zabt etishga harakat qiladi.**

Bu yilgi mundialda hakamlar o‘yin vaqtini to‘liq kompensatsiya qilish bo‘yicha FIFAdan topshiriq olgan. Shu sabab o‘yinlar uzoq davom etmoqda. Bu ba‘zi rekordlarning yangilanishiga olib kelmoqda. Xususan, Angliya–Eron o‘yini mundiallar tarixidagi ekstra taymlarsiz eng uzoq davom etgan o‘yinga aylandi: to‘xtalishlar sababli 117 daqiqa davom etdi. Eron termasi hujumchisi Mehdi Taremi jahon chempionatlari tarixida asosiy vaqtda eng kech gol urgan (103-daqiqada) futbolchiga aylandi.

Garet Beyl Uels termasining mundiallarda 64 yillik tanafusdan keyin kiritgan ilk to‘piga mualliflik qildi. Jamoa so‘nggi bor 1958-yilgi chempionatda qatnashgan.

# TARMOQLI MARKETING NAYRANGLARI

**Bir onaxon Toshkentda mehmon bo'lib qishlog'iga qaytganda uni ko'rgani qarindoshlari kelishibdi. Ular onaxondan: "Toshkent sizga yoqdimi?" deb so'rashganda: "Yaxshi joylar ekan-u, ammo osmoni juda past ekan-da, samolyotlar shundaygina boshim ustidan uchib o'tdi", deyarmish...**

"Nwork International", "Silkway Group Uzbekistan", "Life Network System", "Gano", "Viva Group USA"... Bularning ish olib borish tartibi tarmoqli marketingga asoslangandir. Shu o'rinda tarmoqli marketing xususida ba'zi mulohazalar.

## ISHLASH TIZIMI

Tarmoqli bozor dasturi hamma joyda o'xshash yoki bir xil. Ya'ni birinchi navbatda qaysidir bir paket (toifa, guruh, daraja) summasi to'lab xarid qilasiz. Ular turlicha shoshirib qo'yadigan otlar bilan nomlangan bo'ladi: Kumush karta, Tilla karta, Brilliant, Oltin brilliant, Tadbirkor, Menejer... So'ng siz ham odam taklif qilishingiz kerak: o'ng qo'lingizga, chap qo'lingizga tashlaysiz. Ular ham xarid qilishi, taklif qilishi lozim va h.k. Shu tarzda zanjir hosil bo'ladi. Shogirdlaringiz (*taklif qilgan odamlaringiz shunday ataladi*) ham, shogirdlaringizning shogirdlari ham siz uchun ishlaydi. Ulardan o'z ulushingizni olasiz. Bu zanjir uzilishi mumkin emas. Tizim shunday.

bir qismiga aylanish vositasidir. Kirish uchun turli paketlarni xarid qilishingiz kerakligini aytishadi. Ularning qiymati har xil. Sizga qimmatrog'ini taklif qilib, shunda ishlashingiz osonroq bo'lishi bildiriladi. Bu ham bir hiyla. Chunki ba'zi joylarda bu ahamiyatsiz bo'lsa, ba'zida keyinroq, ya'ni piramida-ning yuqorirog'iga chiqqaningizda ahamiyatli bo'ladi.

Sizning bu cho'qqiga erishishingiz mavhum narsa. Mabodo keyinroq zarurat bo'lsa ham, o'z hisobingizdan emas, balki boshqalarning xarididan pake-tingiz qiymatini oshirib olishingiz mumkin. Sizning kattaroq paketni, toifani xarid qilib kirishingiz faqat sizni taklif qilayotganlar uchun foydalidir. Shuning uchun qimmatrog'ini olishingizni istashadi. Ish jarayonida o'zingiz ham buni tushunib yetasiz va sizga qilishganini siz ham boshqalarga qilasiz! Mabodo ishlolmay chiqib ket-sangiz, ayb sizda bo'ladi: harakat qilmagansiz! Ammo xaridingiz orqali tepadagilarga baribir foyda yetkazdingiz.

Sizga diyonatdan gapirishadi, muhimi halollik ekanini takrorla-shadi. Jalb qilish uchun quyidagi mazmundagi gaplar bo'ladi: Agar kompaniya sog'lomlashtirish vo-sitalari savdosi bilan shug'ullansa, "Bizning mahsulotlar orqali odamlarga manfaat yetkazasiz. Siz sabab bo'lib og'ir be'morlar tuzalib ketadi. Butun umr sizga rahmat aytib yura-di", deydi. O'zlari og'rib qolgani-yu, jarohatlarini eslab, shu malhamlar-dan tuzalganini aytib beradi.



**DO'STLAR VA QARINDOSHLARNI SHAXSIY TIJORAT VOSITASIGA AYLANTIRISH ULAR BILAN SIZNING O'RTANGIZDAGI MUNOSABATLARGA PUTUR YETKAZIB QO'YISHI MUMKIN.**

## VA'DALAR

Tarmoqli marketing orqali qisqa muddatda boy bo'lib ketishni, xaridlardan ulush, keshbek, oraliq va boshqaruv mukofotlari, chet elga sayohat yo'llanmasi, villalarni sizga va'da qilishadi. Ko'p takrorlanadigani avtomobildir. Istasangiz mashina, istasangiz pulini olishingiz mumkinligini aytishadi.

## HIYLALAR

**Cho'qqilar jilvasiga ko'pam mahliyo bo'laverma, bolam. Bu tog'da qashqirlar bor... (Said Ahmad, "Jimjitlik")**


Tarmoqli marketingda tovar asosiy emas, o'yinchilar uchun zanjirning

## O'ZINI OQLASH

**Bir kishi mayizni qo'liga olib: "Eh-he, qanday qilib erinmasdan mayizlarga cho'p qadab chiqishgan ekan-a?!" degan emish.**

Tarmoqli marketing ish tizimi shunday ifodalab beriladi: "Masalan, ruchkani olaylik. Uning zavoddagi narxi 10 so'm. U yerdan chiqqach o'rtada qo'lma-qo'l yurib, savdogarlar, chayqovchilardan o'tib sizga 100 so'm bo'lib keladi. O'rtada 90 so'm oshadi. Bizda esa o'sha pulni o'zingiz olasiz. Ishlab chiqaruvchi bilan xaridorni to'g'ridan-to'g'ri bog'laysiz".

Aksar hollarda tannarxi past mahsulotlarni qimmat narxda xarid qilasiz. Odam taklif qilish uchun ko'p vaqt isrof bo'lishini mutaxassislar aytishadi.



Samariddin YO'LDOSHOV

## OQIBAT

Bir necha yil oldin **islom.uz** saytida Robert Fitzpatrickning tarmoqli marketingdagi 10 ta yolg'onni fosh qiluvchi materiali o'zbek tilida e'lon qilingan ekan. Unda shunday jumalar bor: "Do'stlar va qarindoshlarni shaxsiy tijorat vositasiga aylantirish ular bilan sizning o'rtangizdagi munosabatlarga putur yetkazib qo'yishi mumkin".

## ULAMOLARIMIZ FIKRI

Shayx Muhammad Sodiq Muhammad Yusuf hazratlarining tarmoqli marketing haqidagi maqolasiga murojaat qilamiz (manba: islom.uz). Maqolada Shayx hazratlari: "QuestNet" tarmoqli marketingi misolida umumiy qoidalar va hukmlarni berib o'tgan hamda nomi zikr etilgan tarmoqli marketingning ish olib borish tartibini keltirib o'tadi: "Bir kishi ishga kirishi uchun shu kompaniyaning cheklangan miqdorda ishlab chiqarilgan mahsulotidan birini sotib olishi shart. Mahsulotning eng arzoni 670 dollar. So'ngra u yana boshqa odamlarni shu kompaniya mahsulotidan sotib olishga jalb qilishi kerak. U odamlar ham har biri ikkita odam jalb qiladi va hokazo..."

Shunday qilib, piramida hosil bo'ladi. Kompaniyaga tushgan pulning ma'lum foizi piramidadagi odamlarga berib turiladi. O'ng va chap tomoniga teng uchtadan oltita odamni jalb qilganga kompaniya 250 dollardan beradi...

Ko'pchilik Islom ulamolari "QuestNet" tarmoqli marketingi-ning ish faoliyatini harom deb fatvo bergan... (*iqtibos tugadi*).

Tarmoqli marketingchilar bu fatvolarni eshitgach, bahonalar to'qiy boshlaydi. Qaysidir ulamo ma'qullab fatvo berganini aytadi. Mahsulotlarining "halol"lik sertifikatini ko'rsatadi. Ammo ularni kim bergan, haqiqiy nusxasi bormi? Bordi-yu, haqiqiy hisoblanganda ham faqat tovarning halolligini isbotlaydi. Gap esa ish uslubi - tarmoqli marketing haqida ketyapti.

Shayx hazratlari shunday yoza-di: "Ba'zilar bunday savdoni dallollik bilan tenglashtiradilar. Bu noto'g'ri, chunki dallol bironing molini sotib bergani uchun ma'lum miqdorda pul oladi. Tarmoqli marketingda esa bironing molini sotish uchun kirish puli to'lanadi. Dallollikdan maqsad o'z molini tezroq sotish, tarmoqli marketingdan maqsad esa piramida a'zolarini ko'paytirish. Oradagi farq ochiq-oydin ko'rinib turibdi".

TIL BILIMI

## TO'G'RI TARJIMA QILISH HAM MAHORAT

Xayriddin MUROD

Yaqinda Toshkentda YUNESKOning katta anjumani o'tkazildi. Rus tilli matbuot uni "Всемирной конференции ЮНЕСКО по воспитанию и образованию детей младшего возраста" deb nomladi.

O'zbek OAV esa uni mana shunday variantlarda o'girib, ommaga taqdim etdi:

1. YUNESKOning Kichik yoshdagi bolalarni tarbiyalash va ta'lim berish bo'yicha butunjahon konferensiyasi.
2. YUNESKOning Kichik yoshdagi bolalarga tarbiya va ta'lim berish bo'yicha butunjahon konferensiyasi.
3. YUNESKOning Kichik yoshdagi bolalarni tarbiyalash va ularga ta'lim berish bo'yicha butunjahon konferensiyasi.

Negadir uchala tarjimadan ham ko'nglim to'lmadi. Ifoda toza o'zbekcha emasdek tuyulaverdi. Shundan so'ng ruscha variantga qaradim va uning lo'nda tarjima variantini topdim:

**YUNESKOning kichik yoshli bolalar ta'lim-tarbiyasiga bag'ishlan-jahon konferensiyasi.**

# LUVR: O'ZBEKISTON TARIXI DUNYO SAHNIDA

Shahribonu RAHMATOVA,  
"Yoshlar ovozi" muxbiri

Xalqimizning boy o'tmishi bilan har qancha faxrlansak arziydi. O'zbekistonning boy tarixini dunyoga yana ham yaxshiroq tanitish, madaniyatimiz haqidagi ma'lumotlarni kengroq yoyish lozim. Shunday xayrli ishlardan biri Fransiyada amalga oshirilmoqda.

Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Madaniyat va san'atni rivojlantirish jamg'armasi tashabbusi bilan Fransiya poytaxti Parijda O'zbekiston tarixi va madaniyatiga bag'ishlangan ikkita yirik ko'rgazma ochildi. Ko'rgazmalardan biri mashhur Luvr muzeyida, yana biri esa Arab dunyosi institutida bo'lib o'tmoqda.



## RESTAVRATSIYA ISHLARI

Ko'rgazmaga uch yil davomida tayyorgarlik ko'ildi. Bir qancha o'zbek-fransuz qo'shma ekspeditsiyalari bo'lib o'tdi, ko'plab arxeologik tadqiqotlar olib borildi. Bundan tashqari, Parijdagi Luvr muzeyi restavratlari va mamlakatimiz mutaxassislari bir necha bosqichda keng ko'lami restavratsiya ishlarini bajardi. Restavratsiya qilingan buyumlar orasida Kofirqal'a qadimgi shahar qoldiqlaridan (Samarqand) topilgan, kuyib ko'mirga aylangan va VI-VII asrlarga mansub yog'och lavh, loydan yasalgan "Gulchambar taqqan Buddha" haykali (miloddan avvalgi I asr – milodiy I asr) hamda Islom olamining noyob obyekti va eng muhim qo'lyozmalaridan biri bo'lgan XIII asrga mansub Katta Langar Qur'onining 13 sahifasi restavratsiya qilindi.

## IPAK VA OLTIN MO'JIZALARI

Arab dunyosi institutida bo'lib o'tadigan "Samarqandga yo'l. Ipak va oltin mo'jizalari" nomli ko'rgazmada esa respublikamizning 9 ta muzeyidan olib borilgan 300 dan ortiq eksponatlar namoyish etilmoqda. Ko'rgazmada O'zbekiston hunarmandlarining XIX-XX asr o'rtalariga oid milliy to'qimachilik mahsulotlari, liboslar, bezaklar, Buxoro amirligi davrining zardo'zi choponlari, shuningdek, Nukus shahridagi Savitskiy nomidagi Qoraqalpog'iston Respublikasi Davlat san'at muzeyi kolleksiyasidan Turkiston avangardining 24 ta rangtasvir asarlarini ko'rish mumkin.

Arab dunyosi institutidagi ko'rgazma **2023-yilning 4-iyuniga qadar davom etadi.**



## MARKAZIY OSIYO MAMLAKATLARI ICHIDA BIRINCHI

Luvrdagi "O'zbekiston vohalari xazinalari. Karvon yo'llari chorrahasida" nomli ko'rgazmadan 168 ta eksponat, xususan, O'zbekistonning 13 ta muzeyidan 137 ta, shuningdek, dunyoning yetakchi muzeylaridan yurtimizga oid 31 ta eksponat o'rin olgan.

Shu kunga qadar Luvrda Markaziy Osiyo mamlakatlari haqida ko'rgazma tashkil etilmagan edi. Ko'rgazmaning ilk kunidayoq juda ko'p turist va mahalliy aholi Luvrning O'zbekiston uchun atalgan qismiga kelmoqda. Bu **ko'rgazma 2023-yil 6-martgacha davom etadi.**



## KO'RGAZMA BO'LIMLARI

Jami 1100 kvadrat metrdan ortiq maydonni egallagan ko'rgazmada O'zbekistonning chinakam madaniy xazinalari: hashamatli zardo'z chopon hamda aksessuarlar, qo'lda yasalgan yog'och egar, firuza bilan kumushdan yasalgan jabduqlar, bejirim so'zanalalar (kashta), gilamlar, ipak adraslar, zargarlik buyumlari, bosh kiyimlar, mashhur sharqshunos rassomlarning 20 ta asari o'rin olgan.

Ko'rgazmada zardo'z choponlar, Qur'on suralari bitilgan choponlar, kashtado'zlik, qoraqalpoq libosi, ipak choponlar, I.V.Savitskiy muzeyi kolleksiyasidagi rasmlar kabi bo'limlar mavjud. Birinchi bo'limda erkaklar milliy libosining asosiy elementlaridan biri – zardo'z choponlar bor. Ushbu ko'rgazma oynasida Buxoro muzey-qo'riqxonasi kolleksiyalaridan o'rin olgan Amir Olimxon va otasi Abdulahadxonlar kiygan shu turdagi choponlarni

ko'rish mumkin. Noyob eksponatlardan yana biri Xiva shahridagi Ichan qal'a muzey-qo'riqxonasi kolleksiyasidagi chopondir. Choponning yuqori qismi Qur'on suralari bilan bezatilgan. Shuningdek, u yerda Toshkent, Jizzax, Samarqand, Shahrisabz, Nurota, Buxoro kabi shaharlardagi so'zana va kashtachilikning eng noyob namunalar ham namoyish etilmoqda. Ko'rgazmaning yana bir qismida shoyi, yarim ipak va paxtadan tikilgan 24 ta an'anaviy libos taqdim etilgan. Ularni viloyatlar bo'yicha uchta asosiy guruh: Xorazm, Samarqand va Buxoro, shuningdek, Toshkent hamda Farg'ona vodiysi shaharlariga bo'lish mumkin.

Bu boy ko'rgazmalar O'zbekistonning tarixi, madaniyati, an'analari jarchisi sifatida butun dunyo ahliga o'tmish ajoyibotlaridan darak berishi aniq.

**YOSHLAR OVOZI**

**Muassis:**  
O'zbekiston yoshlar ittifoqi  
Markaziy Kengashi

Navbatchi muharrir:  
**Muhammadshukur MUHAMMADJONOV**

Gazeta O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligida 2020-yil 11-dekabrda № 0242 raqami bilan qayta ro'yxatdan o'tgan. Gazeta materiallari tahririyat kompyuter markazida terildi va sahifalandi. Tahririyat manzili: 100083, Toshkent, Matbuotchilar ko'chasi, 32. Telefonlar: (71) 233-22-16, (71) 236-79-95.

Saytimizga o'tish uchun QR-kodini telefoningiz orqali skaner qiling.



Bosh muharrir:  
**Hamza ABDULLAYEV**

**Bosh hamkor:**  
O'zbekiston Respublikasi  
Yoshlar ishlari agentligi

Musahhih:  
**Qirmizoy HAKIMOVA**

"Sharq" nashriyat-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi bosmaxonasida, A-3 formatda chop etildi. Hajmi – 2 bosma taboq. Korxonada manzili: Buyuk Turon ko'chasi, 41. Indeks: 203, 3203. Bahosi kelishilgan narxda. Buyurtma G-1155. Adadi – 10527. Bosishga topshirish vaqti – 21.00. Topshirildi – 20.00

